

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XAYITOVA FERUZA ABDIXALIKOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TOPONIMLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

UO‘K: 811.111’373.21:008
+811.512.133’373.21:008

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on philological sciences**

Xayitova Feruza Abdixalikovna

Ingliz va o‘zbek tillarida toponimlarning lingvokulturologik tadqiqi 3

Хайитова Феруза Абдихаликовна

Лингвокультурологическое исследование топонимов в английском и
узбекском языках..... 27

Khayitova Feruza Abdikhalikovna

Linguocultural study of toponyms in the English and Uzbek languages..... 53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 57

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJA BERUVCHI
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

XAYITOVA FERUZA ABDIXALIKOVNA

**INGLIZ VA O‘ZBEK TILLARIDA TOPONIMLARNING
LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil1669 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.samdhti.uz) hamda "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Ruzikulov Fazliddin Shukurovich
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Sulaymanova Nilufar Jabbarovna
filologiya fanlari doktori, dotsent

Raximov G'anisher Xudoyqulovich
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Qarshi davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'ladi. (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand sh., Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel: (99866) 233-78-43; Faks (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdhti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 233-78-43, faks: (99866) 210-00-18.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2025-yil "_____" dagi № _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

N.Z.Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'.Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

A.D.Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda toponimlarning lingvomadaniy aspekti zamonaviy tilshunoslik maktablarining dolzarb yoʻnalishlaridan biri boʻlib, u dunyo miqyosida koʻplab olimlarning ilmiy izlanishlari markazida turgan muhim masalalardan hisoblanmoqda. Buning sababi shundaki, har bir xalq oʻz madaniyati, dunyoqarashi va oʻziga xosliklarini aks ettiruvchi geografik obyektni nomlash va ajratib koʻrsatish uchun oʻziga xos til birliklari majmuasidan foydalanmoqda. Toponimlarning lingvomadaniy aspekti masalasi ahamiyatli boʻlishiga qaramasdan, mazkur masala oʻzaro qardosh boʻlmagan (turli tillar tizimiga mansub) tillar materiali asosida kam eʼtibor qaratilgan, shu bois toponimlar lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan chogʻishtirib koʻrib chiqilishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida bugungi kunda til birliklarini oʻrganishga nisbatan fanlararo yondashuv keng qoʻllanilmoqda. Shu bois til birliklarini til va madaniyat, til va jamiyat munosabatlari yuzasidan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Til birliklarini, xususan, joy nomlarini oʻrganishga nisbatan bunday yondashuv nafaqat lingvistik, balki madaniyatshunoslik, tarix, sotsiologiya, dinshunoslik, mifologiya va boshqa sohalar va boshqa fanlarga doir maʼlumotlarni toʻliq oʻzlashtirishni talab etadi. Toponimlarning lingvomadaniy aspektlarini oʻrganish, joy nomlari bevosita u yoki bu hududda yashagan va yashovchi xalqlarning lingvomadaniyatini yoritib berish, etnik kelib chiqishi, markazlashishiga eʼtibor qaratish, semantik, metaforik toponimlarni aniqlash, ijtimoiy madaniy omillarni tahlil qilish bugungi tilshunoslik oldidagi dolzarb vazifalardan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimiz tilshunosligida til birliklarining lingvomadaniy xususiyatlari masalasiga katta eʼtibor qaratilmoqda. Bu borada qiyosiy, chogʻishtirma tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi va bu toponimlarning umumiy, farqli va milliy-madaniy belgilarini yuzaga chiqarish zarurati bilan shartlangan boʻlib, oʻz navbatida xorijiy tillarni oʻrganuvchilarning sotsiomadaniy kompetensiyalarini rivojlantirishga imkon beradi. “Oʻz tilini hurmat qilgan maʼrifatli el boshqalarning ona tiliga ham chuqur hurmat bilan qaraydi”¹. Shu bois tilni hurmat qilish nafaqat soʻzlashish, muloqotga kirishish balki uning yordamida oʻz xalqining tarixini va madaniyatini anglash yoʻlida birinchi qadam hisoblanadi. Ingliz tilidagi toponimlarning oʻziga xos xususiyatini ochib berish, oʻzbek toponimlari bilan qiyoslash, ularning semantik, morfologik jihatlariga ahamiyat berish, oʻxshash va farqli tomonlarini ochib berish bugun tilshunoslikning zaruriy vazifalaridan biriga aylanmoqda.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi oliy taʼlim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “Oʻzbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”, 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda oʻzbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026 yillarga

¹ Mirziyoyev Sh.M. Milliy oʻzligimiz va mustaqil davlatimiz timsoli // Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. Toshkent, 2020. – Oʻzbekiston, – 4-jild. – B. 170.

mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-sonli "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora tadbirlari to'g'risida" shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son "Ta'lim muassasalarida chet tillarni o'qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2021-yil 19-maydagi 312-son "Xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishni samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Mazkur tadqiqot ishi respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Jahonda til birliklarini tadqiq qilishga nisbatan antropotsentrik va lingvomadaniy yondashuv N.F.Alefirenko, V.V.Vorobev, V.A.Maslova, S.G.Ter-Minasova, N.M.Mahmudov, Sh.S.Safarov, D.S.Xudoyberganova² kabi qator olimlarning ilmiy ishlarida ishlab chiqilgan.

Toponimika masalalari bo'yicha tadqiqotlar jahon tilshunosligida E.Ekuall, A.Smith, V.D.Belenkaya, O.A.Leonovich, T.V.Xvesko, V.A.Juchkevich, V.A.Nikonov, N.V.Podolskaya, A.V.Superanskaya³ kabi olimlar tomonidan maxsus o'rganilgan.

O'zbek tilshunosligida S.Qorayev, E.Begmatov, T.Nafasov, Z.Dusimov, T.J.Ernazarov, X.Bo'riyeva, S.Karimov, B.Yo'ldoshev, N.Uluqov⁴ va boshqa

² Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы о языке. – М.: Флинта. Наука, 2005. – 416 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография. – М.: РУДН, 2008. – 336 с.; Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Академия, 2007. – 208 с.; Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – 256 с.; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учебное пособие). – М.: Слово / Slovo, 2000. – 624 с.; Махмудов Н.М. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2012. – № 5. – Б. 3-16.; Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Системс, 2004. – 256 с.; Сафаров Ш.С. Когнитив тилшунослик. – Самарқанд: Санзор нашриёти, 2006. – 92 б.; Худойберганова Д.С. Антропоцентрическое толкование художественных текстов в узбекском языке. Автореф. дис... д-ра филол. наук. – Тошкент, 2015. – 80 с.

³ Ekwall E. English River-names. Oxford: – Oxford University Press, 1968. – 580p.; Smith A.H. English Place-Name Elements. (2 volumes). – United Kingdom: Cambridge University Press, 1987. – 417.; Беленькая, В. Д. Очерки англоязычной топонимики. Учебное пособие. – М.: Высшая школа, 1977. – 227 с.; Жучкевич В.А. Общая топонимика. – Минск: Вышэйшая школа, 1968. – 432 с.; Леонович О.А. Страноведение Великобритании. – 2-е изд., испр. и доп. – М.: Изд-во КДУ, 2004. – 253 с.; Томахин Г.В. Топонимы как реалии языка и культуры // Вопросы языкознания, 1984. №4, – 84-90 с.; Хвесько Т. В. Страноведение: История топонимии Великобритании: учебное пособие. – Тюмень: Издат. центр «Академия», 2006. – 104 с.; Никонов В. А. Введение в топонимику. Изд. 2-е. – М.: Изд-во ЛКИ, 2011. – 172 с.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии терминологии. / Отв. ред. А. В. Суперанская. – Изд. 2-е, перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – 192 с.; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – 2-е изд., испр. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 368 с.

⁴ Қораев С. Географик номлар маъноси. – Тошкент: Узбекистан, 1978. – 204 б.; Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – 64 б.; Бегматов Э., Улуқов Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: 2006. – 103 б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.; Ҳасанов Х. Географик номлар сири. – Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – 120 б.; Дўсимов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 174 б.; Эрнazarov Т.Ж. Ўзбекистон топонимлари: луғавий ва этимологик тадқиқи йўллари. Филол. фанлари

olimlarning ilmiy ishlarida o‘zbek toponimikasining shakllanishiga doir turli tadqiqotlar olib borilgan. X.Xolmo‘minov, Y.Xo‘jamberdiyevlar⁵ tomonidan o‘zbek tili toponimlarining lingvistik jihati monografik rejada ilmiy tahlil qilingan.

Mazkur ishlar asosan toponimikaning umumiy metodologik muammolari, toponimlarni tasniflash, toponimlarning etimologik tahlili kabi masalalarga bag‘ishlangan bo‘lib, asosan bir til materialida struktur tilshunoslik nuqtai nazardan (toponimlarning struktur-semantik va grammatik xususiyatlari) bajarilgan. A.V.Urazmetovaning⁶ qiyosiy tilshunoslik doirasida amalga oshirilgan, Buyuk Britaniya va AQSh toponimlarining etimologik, struktur-so‘z yasash, motivatsion, leksik-semantik, konnotativ, transformatsion, lingvokreativ va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqoti alohida e‘tiborga molikdir.

Lingvomadaniyatshunoslik va chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlar nisbatan kam sonlidir. Masalan, L.N.Davletkulovning tadqiqotida Oksfordshir va Chelyabinsk viloyati toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilingan, V.I.Legenkinaning ilmiy ishida ingliz va rus tillari toponimlarining fonografik va grafik uzatish vositalari usullari ko‘rib chiqiladi, E.A.Sizovning ishida ingliz, rus va fransuz tillaridagi urbanonimlarning lingvomadaniy tahlili amalga oshirilgan⁷.

O‘zbek tilshunosligida antropotsentrik va chog‘ishtirma tilshunoslik doirasida bajarilgan tadqiqotlardan biri S.Anorqulovning nemis va o‘zbek tillari toponimlarini kognitiv aspektda ko‘rib chiqishga va mifologik-diniy, sotsiomadaniy, tarixiy va fizik-geografik xarakterdagi turli bilim strukturalarini qayta ifodalashda toponimlarning konseptual ahamiyatini yuzaga chiqarishga qaratilgan ilmiy ishidir.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Termiz davlat universitetining “Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi toponimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash hamda ularning struktur, semantik va etimologik xarakteristikalarini hisobga olgan holda ingliz va o‘zbek tillaridagi universal, differensial va milliy-madaniy xususiyatlarini yuzaga chiqishini aniqlashdan iborat.

докторлик дисс.-си. – Тошкент, 2006. – 516 б.: Бўриева Х. Тошкент шахрининг тарихий топонимияси (XIX аср охири – XX аср бошлари): Монография. “Ноширлик ёғдуси”. – Тошкент, 2009. – 222 б.; Каримов С.А., Бўриев С.Н. Ўзбек топонимикаси тараққиёт босқичида. – Тошкент: Фан, 2006. – 192 б.; Йўлдошев Б. Ўзбек ономастикаси масалалари. – Самарқанд: 2011; Улуков Н. Ўзбек тили гидронимларининг тарихий-лисоний тадқиқи. – Тошкент: Фан, 2008, – 192 б.

⁵Хўжамбердиев Я. Историко-этимологическое исследование топонимики Сурхандарьинской области Узбекистана. Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1973. – 25 с.

⁶Уразметова. А. В. Английская топонимика как лексическая подсистема языка (на материале топонимической лексики Великобритании и США): автореф. диссер. доктора филол. наук. – Уфа, 2016. – С. 38.

⁷Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на материале географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). Диссер. канд. филол. наук. – Челябинск, 2014. – 220 с.; Легенкова В.И. Топонимы в межъязыковом пространстве: на материале русского и английского языков. Автореф. дисс... канд. филол. наук. – Кемерово, 2010. – С. 24.; Сизова Е. А. Лингвокультурологический анализ урбанонимов: на материале английского, русского и французского языков. Дисс... канд. фил. наук. – Пятигорск, 2004. – 199 с.; Аноркулов С.И. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Филол. фанлари докторлик дисс.-си (PhD). – Самарқанд, 2021. – 140 б.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o'zbek tillarida toponimlar hosil bo'lishining metaforik modellarini hamda ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlarning struktur va semantik xususiyatlarini ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida toponimlarning paydo bo'lishi va amal qilishiga ta'sir ko'rsatuvchi sotsiomadaniy omillarni ochib berish;

ingliz va o'zbek tillarida toponimlar qo'llanilishining lingvomadaniy xususiyatlarini aniqlash;

ingliz va o'zbek tillarida toponimlar tatbiq etilishining universal, differensial va milliy-madaniy xususiyatlarini asoslab berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida toponimik lug'atlarda, ma'lumotnomalarda, xaritalarda, atlaslarda, tarixiy hujjatlarda va arxiv materiallarida keltirilgan ingliz-amerika va o'zbek madaniyatiga oid toponimlar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlarning lingvokulturologik aspekti hamda ularning universal, differensial va milliy-madaniy o'ziga xos xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda joy nomlarini o'rganish va tavsiflashda identifikatsiyalash, tavsiflash, struktur tahlil, etimologik tahlil, qiyosiy-tarixiy, chog'ishtirish, madaniyatlararo tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ingliz va o'zbek tillari toponimlarining tasnifiy, funksional xususiyatlari chog'ishtirma kesimda ochib berilib, ularning struktur, semantik va etimologik jihatlariga ko'ra lingvomadaniy farqlanishi aniqlangan;

ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlar shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar yoritilgan hamda toponimlar semantikasidagi diniy, mifologik, etnografik, aksiologik qiymatli kabi etnomadaniy axborotning milliy-madaniy fonda voqelanish imkoniyatlari asoslangan;

metaforik asosli toponimlarda somatizm, zoonim, fitonim komponentlar, shuningdek rang, shakl, xil-xususiyat anglatuvchi belgili ramzlarning ishtirokini komponent izohlash asosida har ikki til toponimlarida metaforik modellarning semantik-struktur xususiyatlari ochib berilgan;

toponimlarni madaniy ahamiyatli axborotni verballashtiruvchi, saqlovchi hamda ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlari vakillarining olamni idrok etish va talqin qilish xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy konstantalar sifatida ko'rib chiqish o'rinli ekanligi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

toponimlarni lingvomadaniy aspektda chog'ishtirma tadqiq qilish natijasida ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlarning yuzaga chiqarilgan universal hamda differensial belgilari ingliz va o'zbek lingvomadaniyatlari vakillarining atrofdagi olamni milliy qabul qilish, idrok etish va talqin qilish o'ziga xosliklarini tushunish imkonini beradi;

amalga oshirilgan tadqiqot natijalari nafaqat tilshunoslik uchun, balki din, etnografiya, tarix, ijtimoiy va madaniy fanlar uchun ham ahamiyatlidir;

tadqiqot natijalari chogʻishtirma tilshunoslik, leksikologiya, tarjimashunoslik, stilistika, til nazariyasi va lingvomadaniyatshunoslikning rivojiga muayyan hissa qoʻshadi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ingliz va oʻzbek tillarida tahlil qilingan katta hajmli faktologik material bilan, tilshunoslikda ishlatiluvchi (struktur, semantik, stilistik, madaniyatlararo, chogʻishtirish va boshqa) yondashuv va metodlarning qoʻllanishi, toponimika masalasiga doir tilshunoslikda amalga oshirilgan qator tadqiqotlarning nazariy qoidalaridan foydalanilganligi, zamonaviy tilshunoslikning dastlabki asosiy ilmiy-nazariy qonuniyatlari (antropotsentrizm tamoyili, fanlararo tamoyil) hamda, tadqiqot natijalarining ishning nazariy qonuniyatlariga muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati, tadqiqot natijasida olingan xulosalar ingliz va oʻzbek tillarida toponimlarni tadqiq qilishda fanlararo yondashuvdan foydalanish oʻrinli ekanini, shuningdek toponimik birliklarning til leksik sistemasida lingvomadaniy ahamiyat kasb etishini tadqiq etish bilan bogʻliq ilmiy-nazariy qarashlarni toʻldirishi va kengaytirishi bilan belgilanib, tadqiqot natijalari lingvomadaniyatshunoslik nuqtai nazaridan chogʻishtirma tilshunoslik va toponimikaning rivojiga ham hissa qoʻshishi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, tadqiqot materiallari oliy oʻquv yurtlarida umumiy tilshunoslik, chogʻishtirma tilshunoslik, leksikologiya, toponimika, lingvomadaniyatshunoslik, dinshunoslik singari fanlaridan maʼruza va seminar mashgʻulotlarini oʻtkazishda, dissertatsiya ishlarini, darsliklar va oʻquv qoʻllanmalarini yozishda, shuningdek turli lugʻatlarni tuzishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va oʻzbek toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlarini tadqiq qilish jarayonida olingan nazariy xulosalar va amaliy natijalar asosida:

Ingliz va oʻzbek tillari toponimlarining tasnifiy, funksional xususiyatlari chogʻishtirma kesimda tekshirilib, ularning struktur, semantik va etimologik jihatlariga koʻra lingvomadaniy farqlanishi koʻrsatib berilganligiga oid xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetida 2021–2023-yillarda amalga oshirilgan PF-201912258 “Oʻzbek adabiyotining koʻp tilli (oʻzbek, rus, ingliz tillarida) elektron platformasini yaratish” nomli grant loyihasida qoʻllanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat oʻzbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil, 18-apreldagi 04/1-982-sonli maʼlumotnomasi). Ushbu loyiha doirasida aholining til xususiyatlarini, joy nomlarining etimologiyasi, lugʻaviy maʼnolari, fonetik va morfologik tarkibiy tuzilishlari, toponimlarning lingvistik tabiatiga xos lisoniy, onomastik-grammatik, onomastik-morfologik, onomastik-sintaktik xususiyatlaridan dasturning tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan. Natijada, loyiha doirasida oʻzbek va ingliz tillardagi toponimlarning elektron platformadagi sifat va miqdor jihatdan yangilanishida ijobiy samara bergan;

Ingliz va o‘zbek tillaridagi toponimlar shakllanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillar yoritilgan hamda toponimlar semantikasidagi etnomadaniy (diniy, mifologik, etnografik, aksiologik qiymatli) axborotning milliy-madaniy fonda voqelanish imkoniyatlari asoslanganligiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti tomonidan 2020–2023-yillarda amalga oshirilgan AM-Φ3-201908172 “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish” mavzusidagi amaliy grant loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil, 24-apreldagi 04/1-1053-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, toponimlarning shakllanishi va semantik xususiyatlarini aniqlashga doir umumiy lingvistik qarashlarning mukammallashtiruvchi erishilgan;

Toponimlarni madaniy ahamiyatli axborotni verballashtiruvchi, saqlovchi hamda ingliz va o‘zbek lingvomadaniyatlari vakillarining olamni idrok etish va talqin qilish xususiyatlarini aks ettiruvchi lingvomadaniy konstantalar sifatida ko‘rib chiqish o‘rinli ekanligi dalillanganligiga doir nazariy ma’lumotlardan O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “O‘zbekiston tarixi” telekanalida e’fira uzatiladigan “Ibtido” ko‘rsatuvi ssenariylarini tayyorlashda foydalanilgan. (O‘zbekiston teleradiokanali davlat muassasasining 2024-yil, 23-apreldagi 0231-534-sonli ma’lumotnomasi). Natijada, turkum ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash jarayonida toponimlarning lingvomadaniy xususiyatlarini yoritish kengaytirilib, ularning madaniy merosni uzatish va milliy tafakkurni aks ettirishdagi o‘rni boyitilgan.

Metaforik asosli toponimlarda somatizm, zoonim, fitonim komponentlar, shuningdek rang, shakl, xil-xususiyat anglatuvchi belgilar ramzlarning ishtirokini komponent tahlil qilish asosida har ikki til toponimlarida metaforik modellarning semantik-struktur xususiyatlari yoritilganligida oid nazariy xulosalardan Yevropa Ittifoqining “ERASMUS + dasturi 561624-EPP-1-2015-UK-EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS + CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayonlarini modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli xalqaro loyihasida foydalanilgan. (Samarqand davlat chet tillar institutining 2024-yil, 4-martdagi 492/02-son ma’lumotnomasi). Natijada, ikki tilga oid toponimlarning qiyosiy tahlili orqali har ikkala xalqning madaniy kodlari, tarixiy tajribasi va ijtimoiy ongida muhim o‘rin tutgan omillarni aniqlash imkoniyati takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-nazariy anjumanlarda muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 19 ta ilmiy ish, shulardan, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, xorijiy jurnalda 1 ta, respublika jurnallarida 4 ta maqola e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, 3 bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat bo‘lib, dissertatsiyaning umumiy hajmi 148 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati ilmiy-nazariy jihatdan asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilangan; O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati bayon etilgan; tadqiqot natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Toponimika lingvistik fan sifatida: asosiy tamoyillar va yondashuvlar”** nomli birinchi bobi, birinchi fasli **Toponimik tadqiqotlarda turli yondashuvlar** deb nomlangan bo‘lib, lingvokulturologiyaning asosiy qoidalari va muammolarini, toponim tushunchasi va uning turlarini ko‘rib chiqishga, tilshunoslikda toponimlarni tasniflashga nisbatan turlicha yondashuvlarini belgilashga bag‘ishlangan.

Lingvomadaniyatshunoslikning asosiy tushunchalari nomli ikkinchi faslida, lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik chorrahasida vujudga kelgan fanlararo fan bo‘lib, til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni, tildagi turli madaniy omillarning namoyon bo‘lishini o‘rganadi. Ushbu tilshunoslik fanining asosini olam manzarasi (dunyo tasviri), lingvomadaniyat va madaniy kod tushunchalari tashkil etadi. Olam manzarasi olamning konseptual manzarasiga ajraladi va mazkur tushuncha ostida inson tomonidan butun umri davomida o‘zlashuvchi, uning olam haqidagi tasavvurlari, olamning global manzarasi tushuniladi. Olamning lisoniy manzarasi olamning konseptual manzarasini til birliklari vositasida obyektlashtiradi (aks ettiradi). Olamning milliy manzarasi olam lisoniy manzarasining ajralmas qismi bo‘lib, uni tadqiq qilish milliy dunyoqarash va dunyoni idrok etishga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Lingvokulturema nafaqat lisoniy ma‘no bilan, balki madaniy ma‘no bilan ham xarakterlanuvchi til birligidir. Lingvokulturema so‘zdan tortib matngacha bo‘lgan turli til birliklari bilan qayta namoyon bo‘ladi.

Toponimlarni lingvokulturologik o‘rganishning nazariy va amaliy asoslari nomli uchinchi faslida, toponim – tabiiy hamda inson tomonidan yaratilgan yirik obyektlardan tortib kichik obyektlargacha – istalgan geografik obyekt nomi. Toponimlar turli tillarga va turli davrlarga oid hodisalarning yig‘indisi bo‘lib, muayyan lingvomadaniyatning toponimik sistemasini hosil qiladi. Buning sababi shundaki, “toponim madaniy-markerlangan birlik sifatida ma‘lum bir lingvomadaniyat olam milliy manzarasining parchalarini aks ettiradi”⁸. Toponimlarning asosiy funksiyalariga identifikatsiyalovchi (nomlovchi), ko‘rsatuvchi (deyktik), manzilli (manzil vazifasini bajaradi), tavsiflovchi (obyektni tavsiflovchi), ideologik (g‘oyani o‘z ichiga olgan), deskriptiv (tavsifiy), pragmatik (obyektlarni ongli ravishda nomlash yoki qayta o‘zgartirish) kabilar kiradi.

Toponimlarning turli tasniflari mavjud bo‘lib, ularning asosida turli mezonlar yotadi: a) nomlash (nominatsiya) obyektlari bo‘yicha (oronimlar, gidronimlar,

⁸ Аноркулов С.И. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс-си автореф. – Самарқанд, 2021. – Б. 60.

oykonimlar va boshq.); b) obyekt kattaligi (hajmi) bo'yicha (makrotoponimlar va mikrotoponimlar); v) etimologik jihatiga ko'ra (tub, tub bo'lmagan, gibrid (aralash)); d) motivatsiyalanganlik darajasiga ko'ra (tavsiflovchi (tasvirlovchi), voqeaviy, mansublik xususiyatiga ega, memorial, tavsiyaviy, xalqona-etimologik, sun'iy, yanglish berilgan). Qayd qilish joizki, yagona tasnif mavjud emas, zero barcha tasniflar o'z afzalliklari va kamchiliklariga ega.

Bir qator mahalliy, xorijiy va rus olimlarining toponimika bo'yicha nazariy adabiyotlari tahlili toponimiyani lingvistika nuqtai nazaridan tadqiq qilishga nisbatan bir qancha yondashuvlarni ajratish imkonini beradi: 1) toponimika bo'yicha umumnazariy tadqiqotlar; 2) toponimika bo'yicha etimologik tadqiqotlar; 3) toponimlarning strukturaviy-semantik xususiyatlarini aniqlashga bag'ishlangan tadqiqotlar; 4) ikki yoki undan ortiq tillar materiali asosida toponimlarning qiyosiy (chog'ishtirma) tadqiqi; 5) toponimikaga oid leksikografik tadqiqotlar; 6) toponimlarning kognitiv va lingvomadaniy tadqiqi. Ta'kidlash joizki, tahlilimiz ko'rsatganidek, kognitiv va lingvomadaniy jihatlarni o'rganishga oid, ayniqsa, o'zbek va ingliz tillari materiallariga oid ishlar nisbatan kam sonlidir.

“Toponimlarning lisoniy mohiyati” nomli ikkinchi bobi, birinchi fasli **Ingliz va o'zbek toponimlarining tuzilmaviy jihatlari** deb nomlangan bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlarning strukturaviy-semantik xususiyatlarini hisobga olgan holda ularning universal va differensial xususiyatlari yuzaga chiqarilgan. Shuningdek, mazkur bobda ingliz va o'zbek tillarida toponimlar ifodalanishining metaforik xususiyatlari ham ko'rib chiqiladi.

Ingliz va o'zbek tillaridagi toponimlarning struktur xususiyatlari nuqtayi nazaridan tasnifi ularni sodda, yasama, qo'shma va murakkab toponimlarga ajratish mumkinligini ko'rsatdi. Ingliz va o'zbek tillari toponimlarning umumiy izomorf hodisalariga quyidagilar kiradi: 1) har ikkala tilda sodda, yasama, qo'shma, murakkab toponimlarning mavjudligi (**ingl.:** *Comb, Bristol, Dover, Kent, Rye, York, Moor, Avon, Hillrose, Saltfork, Pineridge, Stillwater, Pearl Harbour, Acton Green, Bolton-le-Sands*; **o'zb.:** *Qarshi, Bahor, Jaloyir, Barlos, Baxt, Zomin, Chinoz, Jarko'chgan, Selkeldi, Suvyorgan, Toshkent, Mirzacho'l, Dehqonobod, Oyoqquduq*); 2) har ikkala tilda maxsus topoasos, topoformant va yarim affikslarning mavjudligi (**ingl.:** *-ton, -ham, -don, -stead, -wick, -throp, -ville, -y/-ly, -ia, -polis*; **o'zb.:** *-iston, -obod, -zor, -kent*); 3) har ikkala til strukturasiida quyidagi modellarning amal qilishi: “ot + ot”, “sifat + ot”, “son + ot” va “fe'l + ot” (**ingl.:** *Woodacre, Canyon dam, Bridgewater, Foxpark, Greenwood, Wildwood, Freestone, Greenspot, Firstview, Eightmile, Twodot, Killbuck, Killdeer, Speedwell*; **o'zb.:** *Yozyovon, Yorqishloq, Moybuloq, Toshquduq, Yomonovul, Kattako'rpa, Oqsuv, Beshariq, Yettikechuv, Sakkiztom, Qirqqiz, Keldihayot, Uyg'antosh, Uchganjar, Qolgandaryo*).

Shuni ta'kidlash kerakki, ikkala til uchun umumiy bo'lgan xususiyatlar bilan birga ayrim farqlarni ham kuzatish mumkin: masalan, ingliz tilidagi eng oddiy joy nomlari belgilangan geografik obyektlarning ayrim xususiyatlarini aks ettiradi: *Comb* (vodiy), *Thames* (qora), *Stone* (tosh), *Weald* (o'rmonli hudud), *Down*

(pastlik), *Ayr* (o‘zan, oqim), *Avon* (daryo), *Kent* (sohilbo‘yi hudud), *Moor* (botqoqlik hududi), *Chalk* (ohak, ohaktosh).

Strukturasi (tuzilishi) jihatidan quyidagi hodisalar differensialdir: 1) o‘zbek tilida sodda tub/sodda yasama toponimlarning, ingliz tilida esa faqat tub toponimlarning mavjudligi (**ingl.:** *Ely, Moor, Avon, Lyme, Penn, Thames*); 2) ingliz tilida maxsus toponimik suffikslar va so‘z yasovchi elementlarning mavjudligi (*-ton, -ham, -don, -wick, -throp, -u/-lu, -ia*); 3) ingliz tilida suffikslar ko‘rinishidagi predlogli (old qo‘shimchali) birikmalarning mavjudligi (*Stratford-upon-Avon, Milton-under-Wychwood, Sandford-on-Thames, Weston-on-the-Green*); 4) ingliz tilida “fe’l + ravish” va “predlog (old qo‘shimcha) + ot” shaklidagi (*Inwood, Overland, Underbill, Underwood, Killbuck, Killdeer*), o‘zbek tilida esa “ot + fe’l” shaklidagi (*Jarko‘chgan, Selkeldi, Suvyorgan, Qumbosdi*) kompozit modellarning mavjudligi; 5) o‘zbek tilidagi murakkab toponimlarda 3-shaxs suffiksining ishlatilishi⁹ (*Navoiy viloyati, Zarafshon fermer xo‘jaligi*).

Murakkab toponimlarning model bo‘yicha yasalishi deganda biz leksik semantik yasalish modelini tushunamiz (2.1-jadvalga qarang).

2.1-jadval.

Ingliz va o‘zbek tillarida murakkab toponimlarning leksik semantik yasalishi

Semantik tarkibli guruh	Grammatik yasalish modeli ingliz tilida	Toponimlar soni ingliz tilida	%	Grammatik yasalish modeli o‘zbek tilida	Toponimlar soni o‘zbek tilida	%
Otli	N+N	43	51	N+N, N+Adj N+V	28	46
Fe’lli	V+N, V+Adv	3	3.5	V+N	5	8
Sifatli	Adj+N	29	34	Adj+N	18	30
Sonli	Num+N	3	3.5	Num+N	9	15
Predlogli	Prep+N	6	7	-	-	-
Jami:		84	100		60	100

Ingliz va o‘zbek tillarida murakkab toponimlarning leksik semantik yasalishi tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida N+N (ot+ot) modeli va Adj+N (sifat+ot) modeli orqali yasalgan toponimlar o‘zbek tiliga qaraganda ustunlik qiladi. Ammo, Num+N (son+ot) va V+N (fe’l+ot) modeli orqali yasalgan toponimlar ingliz tiliga nisbatan o‘zbek tilida ko‘proq ekanligi aniqlandi.

Ingliz va o‘zbek toponimlarning semantik jihatlarini nomli ikkinchi faslida, toponim o‘zi qo‘llanuvchi apellyativ leksika bilan aloqani saqlaganida, ya’ni ahamiyatli ekanligida uning semantikasi to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Masalan, Y.L.Berezovich toponimning semantikasini “mazkur geografik obyekt to‘g‘risidagi,

⁹ Аноркулов С.И. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс-си автореф. – Самарқанд, 2021. – Б. 60.

uning ko‘rinishi va joylashuvi haqidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan tushuncha” sifatida ta’riflaydi, shu bilan birga “...ayni vaqtda semantika...tuganmas”¹⁰ ekanligiga ishora qiladi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi toponimlarni nomlarning motivatsiyasi bilan bog‘liq ravishda semantik tahlil qilish natijasida quyidagi guruhlar va ularning ichki guruhlari ajratilgan:

1) geografik obyektning joylashuvini belgilovchi toponimlar:

a) obyektning suv havzasida ekanligini belgilovchi toponimlar, ular quyidagi leksemalar bilan ifodalanadi: **ingl.:** *spring, stream, lake, burna, bourne, borne, brook, welle, branch, creek, bend, bar, run, flow* (Shirburn, Fulbrook, Sander’s Bend, Lutteswelle, Rapid Creek, Sandy Bar, Honey Run, Springdale, Springfield, Spring Lake, Alderbed Flow, Lakeside); **o‘zb.:** *anhor, nahr, ama, ariq, afdoq, bodoq, buloq, daryo, jo‘y, jo‘bor, jo‘yak, kanal, koriz-keriz, saqa, ko‘l, mashat, ob, ro‘d, ro‘d bor, sardoba, sel, soy, suv, tagob, chashma, sharshar, o‘zak, qoq, quduq* (Amaovul, Beshariq, Oqbuloq, Saksonkoriz, Ayronko‘l, Uchmashat, Labiob, Ro‘dak, Toshsaqa, Bo‘zsvuv, Sarchashma, Sharilloq, Ko‘ko‘zak, Botirquduq);

b) landshaft va relyef xususiyatlarini belgilovchi toponimlar: **ingl.:** *moor, heath, ey, bluff, butte, beorg, canada, canyon, clif, cumb, cerro, crest, dome, dūn, den, cerrito, finger, rincon, glen, gulch, hollow, knob, loma, mesa, mount, mountain, rincon, grove, hill, top* (Canyon, Northmoor, Warborough, Crowmarsh, Gifford, Otmoor, Garsington, Sheningto, Chalgrove, Bucknell); **o‘zb.:** *aydar, ayloq, ayg‘ir, alan, anna, bel, belas, beshiktosh, boldir, guldirama, guldirov, guldirovuk, gurillovuk, gurkirov, dalvarzin, dilvarzin, do‘lbo‘rjun, yetim tov, yorma, jorma, zakan, zaxbar, zaxbur, zovlin, kindik, ko‘tal, ko‘tarma, odam tosh, oynatosh, oqqum, regzor, sang, sangzor, sangiston, tarnov, tepa, tepalik; tuyamo‘yin, tuyatosh, xandaq, o‘ra, jarlik, qo‘ton¹¹; adir, bel, dara, dahana, do‘ng, jar – yor, kamar, ko‘tal, tall, tepa, teva, tosh, tog‘ – tov, chosh, oy, qapchig‘ay, qo‘ton, qiya, qir, qum* (Adirmoq, Beltepa, Omondara, Ko‘kjar, Kamarqishloq, Dovtosh, Qoratosh, Yetimtog‘, Qoraqo‘ton, Ayriqiya)¹²;

2) xo‘jalik faoliyati bilan bog‘liq ijtimoiy-iqtisodiy toponimlar, quyidagilar ularning indikatorlaridir: **ingl.:** *fort, camp, place, village, manor* (*Fort Bragg, Colonial Village, Falls Village, Greenwich Village, Van Felt Manor*); **o‘zb.:** *shaharcha, ovul, qo‘rg‘oncha, mahalla, qishloq, yayloq/yaylov* (Ayoqchiovul, Qazi mahalla). O‘zbek tilida ham muayyan hudud aholisining kasbini aks ettiruvchi ko‘plab toponimlar mavjud (*Aravakashlar, Aravachilar, Asalchi, Astarbof Attoron, Bog‘bon, Baydoqchi* (“bayroqchi”), *Baqirchi* (“misgar”), *Baliqchi*);

3) etnotoponimlar, xalqlar va qabilalar nomlaridan kelib chiqqan toponimlar. Mazkur guruhda asosan o‘rganilayotgan mamlakatlar hududida nisbatan keng tarqalgan, mamlakatda yashovchi etnoslar nomlari ishlatiladi: Masalan, England (angllar mamlakati), Essex (sharqiy saksonlar yeri), Dorset (Dornlik odamlar yeri), Irby, Ireby (Irlandlar fermasi), Devonshire (*Defenascir* qabilasi nomidan),

¹⁰ Березович Е.Л. Семантические микросистемы топонимов как факт номинации. – М.: 1991. – С. 75.

¹¹ Madrahimov Z. Tarixiy toponimika. O‘quv qo‘ll. – Toshkent: Navro‘z nashriyoti, 2017. – B. 69.

¹² Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘ll. – Toshkent, O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – B. 52.

Cumberland (Kumrilar yeri) va boshq. Xuddi shu guruhda “xalq, qabila, odamlar” ma’nosini anglatuvchi qadimgi inglizcha “folc” elementni o‘z ichiga olgan joy nomlari mavjud: Norfolk (Sharqiy angllarning shimoliy yeri), Suffolk (Sharqiy angllarning janubiy yeri). O‘zbek tilida etnotoponimlar keng tarqalgan toponim turlaridan biri: Oqbuyra, So‘loqli, Jaloyir, Qipchoq, Achamayli, Barlos, Qo‘ng‘irot, Chinoz, Kerayit, Jobi;

4) antropotoponimlar, ya’ni shaxs ismlaridan olingan toponimlar. Ko‘pgina hollarda, antropotoponimlar maqomi juda xilma-xil bo‘lishi mumkin bo‘lgan shaxslarning ismlarini ifodalaydi – olimlar, faylasuflar, siyosatchilar, kashfiyotchilar va boshqalar. **ingl.:** *Telford (Thomas Telford), Colombia (Christopher Columbus), Darwin (Charles Darwin), Helensburgh (Lady Helen Sutherland), Washington, D.C. (George Washington); o‘zb.:* *Ahmad Yassaviy, Ahmad Yugnakiy, Navoiy, Hamza, Mirzo Ulug‘bek;*

5) tabiat bilan bog‘liq toponimlar:

a) fitotoponimlar, ya’ni o‘simlik olami nomlarini o‘zida saqlovchi toponimlar. Ingliz tilida fitoponimlar ko‘pincha quyidagi komponentlarni o‘z ichiga oladi: a) daraxtlar bilan bog‘liq: *maple, birch, peach, apple, ash, willow, oak;* b) dukkaklilar va bug‘doy nomlari bilan: *fearn, wheat, nut, willow, flax, pear, cress, pea (Lyneham, Cedarville, Oakley, Appleford, Linden, Ashbury, Mapledurham, Pyrton, , Walnut, Walnutport, Oakhill, Ashland, Pineville, Ivydale, Maplewood).*

O‘zbek tilida fitoponimlar, asosan, quyidagi turdagi nomlarni o‘z ichiga oladi: a) yovvoyi o‘simliklarning nomlari: *ajriq, archa, burgan, do‘lana, lola, pista, so‘kso‘k (saksovul), turang‘i, shilvi, shuvoq, evalak, erman, yulg‘un, jing‘il, yantoq, qamish, g‘umay;* b) mevali daraxt va o‘simliklar nomlari: *anjir, anor, bodom, jiyda, olcha, olma, paxta, arpa, beda, pista, tariq, terak, tol, tut, uzum, shaftoli;* c) poliz o‘simliklarining nomlari: *tarvuz, qovoq, qovun;* d) gullar nomlari: *lola, gul (Bodomcha, Do‘lana, Yulg‘unzor, Qorayantoq, Oqqamish, Beshterak, Beshqovoq, Jiyda, Mirzaterak, Nayzaqayrag‘och, Olchali, Tolliovul, Tutzor, Uzumzor, Shaftoli, Gulzor, Qo‘shchinor);*

b) zootoponimlar, ya’ni hayvonot olamining o‘ziga xosligini aks ettiruvchi toponimlar.

Ingliz madaniyatida uy hayvonlari juda muhim edi, bu ularning toponimikada faol ishlatilishiga olib keldi: *Oxford, Shipdham, Chawley, Hinksey, Shifford, Calton, Stadhampton, Henstridge.* Muayyan hududda yashovchi yovvoyi hayvonlar va qushlarning nomlari ham tez-tez ishlatiladi: *Deerhust, Deerland, Ousden, Wolferton, Wolfhampcote, Wolfhill, Brockhurst, Finchale, Gawthorpe, Swallowcliffe, Crowhurst, Arncliffe, Hawksworth, Beverley, Beversbrook.*

O‘zbek tili toponimlarida quyidagi zoonimlar ko‘proq qo‘llanadi: *ayg‘ir, baliq, bahrin, bedana, biya, burga, burgut, buvra, bug‘ra, bo‘ri, do‘lta (“sirtlon”), ilon – jilon, karp, laylak, ot, tuya, chag‘a, chigirtka, chovli, shag‘ol, echki, eshak, qarsak, qarchig‘ay, qarg‘a, qulon, g‘ajir (Kiyikchi, Ayg‘ir, Bahrin, Bedana, Beshechki, Biya, Burgali, Burgutqal‘a, Ilonli, Laylakon, Laylakuya, Oqbo‘yra, Oqechki, Chigirtkali, Chovli, Qarchig‘ay, Qarg‘atepa, Qulonxona, G‘ajir).*

Ham ingliz, ham o‘zbek tillari toponimlarining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri obrazlilik asosida tildagi universal hodisa – metafora usuli orqali hosil bo‘lgan

toponimlarning mavjudligidir. Metaforaga o‘ziga xos ekspressivlik xos bo‘lib, bu uni boshqa stilistik usullar orasidan ajratib turadi. U nihoyatda turlicha bo‘lgan predmet va hodisalarni bir-biriga yaqinlashtirish borasida cheksiz imkoniyatlarga ega bo‘lib, faktik jihatdan predmetga yangi mazmun yuklaydi. Metafora obrazlilikka asoslanib, ushbu obrazlilik “nutq mazmuni hissiy (ko‘ruv, eshituv, taktil (teri sezgisi), tam bilish, hid bilish) tasavvurlar orqali idrok qilinadigan predmetli aniqlik darajasi tushuniladigan nutq tasviriyliigi”¹³ sifatida talqin qilinadi. Metaforaga asoslangan obrazlilik ko‘p hollarda toponimlar hosil bo‘lishida ishtirok etadi.

Ingliz va o‘zbek tilida metaforik toponimlar deb nomlangan uchinchi faslida, til materiali tahlili shuni ko‘rsatdiki, metaforalar asosini tashkil etuvchi obrazlar va belgilar yetarlicha turli-tumandir. Quyidagi turlarni ajratish mumkin:

1) inson va hayvon tana a‘zolari nomi bo‘yicha nisbatlanishi: **ingl.:** *Thumb, Headington, Footbridge, Armsdale, Handbridge, Greenfoot*; **o‘zb.:** *Yonbosh, Kindiklitepa, Tumshuq, Tumshuqtosh, Uzunoyoq, Barmoqqo‘nish, Boshdara*.

Mazkur guruhda ingliz tilida asosan inson tana qismlari ishlatiladi (head – bosh, hand – kaft, arm – qo‘l), ayni vaqtda o‘zbek tilida inglizcha leksemalar bilan mos keluvchilaridan tashqari ingliz tilida uchramaydigan leksemalar (kindik, bo‘yin), shuningdek hayvonlarning tana qismlari (tumshuq) ishlatiladi;

2) relyef obyektlari va suv obyektlarining rang bo‘yicha nisbatlanishi: **ingl.:** *Redbridge, Whitebrook, Blackburn, Greenfield*; **o‘zb.:** *Alako‘ylak, Bo‘yinqora, Oqdaryo, Ko‘kdala, Ko‘ksoy, Olatog‘, Oltinko‘l, Sariqtepa*;

3) geografik obyektlarning hajmga ko‘ra nisbatlanishi: **ingl.:** *Bigbury, Smallbridge, Smallfield, Thickwood, Thinford*; **o‘zb.:** *Ingichka, Kattako‘rg‘on, Kichikdaryo, Kichkina*.

Qayd qilish joizki, “Relyef obyektlari va suv obyektlarining rang bo‘yicha nisbatlanishi”, “Geografik obyektlarning hajmga ko‘ra nisbatlanishi” guruhlariga mansub metaforik nominatsiyalar asosan ingliz va o‘zbek tillarida o‘xshash;

4) geografik obyektlarning joylashuvi va makondagi oriyentirlari (mo‘ljallari) bo‘yicha nisbatlanishi: **ingl.:** *North Lanarkshire, Dagenham East, High Street Kensington, West Kensington, South Dalton*; **o‘zb.:** *Yuqoriqishloq, Yuqoriovul, Balandqo‘ton, Tepaqo‘rgon, Chuqurqishloq*.

Mazkur guruh toponimlari ingliz tilida ham, o‘zbek tilida ham mavjud bo‘lishiga qaramasdan, bu o‘rinda differensial belgi ham namoyon bo‘ladi, chunki o‘zbek tilida “yuqoriga-pastga” tushunchalarini ifodalovchi metaforalar, leksemalar (*chuqur, tepa, baland, yuqori*) ishlatiladi, ayni holatda ingliz tilida bular dunyo tomonlariga nisbatan joylashuvni ifodalaydi (*shimol, janub, sharq, g‘arb*);

Universal guruhlar bilan bir qatorda milliy-madaniy jihatdan faqat o‘zbek tiliga xos guruhlar ham aniqlandi:

5) geografik obyektlarning insoniy sifatlar va insonning holatiga bog‘liq bo‘lgan predmetlar bilan nisbatlanishi: *Yomonsoy, Yomontosh, Jinnibuloq, Jinnidaryo, Kalqishloq, Karbuloq, Tentak, Tentakovul*;

¹³ Стилистический энциклопедический словарь русского языка / Под. ред. М.Н. Кожинной. – М.: Флинта: Наука, 2003. – 696 с.

6) inson va qarindoshlik terminlari bilan nisbatlanishi: *Bobotog‘, Kelintepa, Kampiro‘ldi, Oyimtog‘, Xotinrabot*;

Mazkur ikki guruhda metaforaning baholovchi xususiyati va emotsionalligi namoyon bo‘ladi. Metaforaning baholovchi xususiyati muallifning u tomonidan tasvirlanuvchi borliqqa nisbatan ijobiy va salbiy munosabati bilan belgilanadi (yomon, tentak, jinni – salbiy baho, bobo, kelinchak – ijobiy baho);

7) ta‘m sifatlari bilan nisbatlanishi: *Achchiqquduq, Shirinbuloq, Sho‘ruzak, Sho‘rko‘l, Sho‘rqishloq, Sho‘rquduq, Sho‘rguzar*. O‘zbek tilida real borliqning hissiy idrok etilishi ko‘pincha ta‘m sezgilariga tayanadi. Borliqni ta‘mga ko‘ra anglashga nisbatlanuvchi obrazlar ham nisbatan ko‘p “ekspluatatsiya” qilinadi (shirin, achchiq, sho‘r);

8) geografik obyektlarning shaklga ko‘ra nisbatlanishi: o‘zb.: *Kindikli, Ilonsoy, Yo‘g‘ontayoq, Yo‘g‘ontepa, Kamarovul, Ko‘rpa, Sochtepa, Teshiktepa, To‘rtko‘l, Uzunqir, Uchburchak*;

9) geografik obyektlarning insonlar maishiy hayotiga bog‘liq predmetlar bilan nisbatlanishi: *Ketmon, Ketmontepa, Cho‘michli*;

10) o‘simliklarning yo‘qligi (odatda relyef obyektlarida) yoki yakka obyektlar: *Yetimcha (tog‘), Yetimtog‘, Yetimquduq, Kaltepa, Kalquduq*.

Keltirilgan ma‘lumotlar nafaqat o‘zbekcha metaforik apellyativlarning boyligini, balki o‘zbek xalqiga xos toponimik qarashlarning ayrim etnik bo‘yalgan qirralarini ham yorqin namoyish etadi. O‘zbek metaforik toponimlarida oilaviy qadriyatlar, taomlar va ta‘m bilan bog‘liq tushunchalar muhim bo‘lgan xalqning dunyoqarashi barqaror aks etadi.

Dissertatsiyaning **“Toponimlarning lingvokulturologik aspekti”** nomli uchinchi bobi, birinchi fasli **Toponimlar shakllanishiga ta‘sir ko‘rsatuvchi ijtimoiy madaniy omillar** deb nomlangan bo‘lib, ingliz va o‘zbek tillari toponimlarining lingvomadaniy aspektini tadqiq qilishga bag‘ishlangan.

Ingliz tili toponimlari ham o‘zbek tili toponimlari kabi mazkur hududda yashovchi bir millatga xos lingvomadaniyat vakillarining madaniyati bilan, turli tarixiy, siyosiy va ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Buning sababi shuki, ko‘plab tadqiqotchilar qayd qilganidek, toponimlar qadim asrlardan beri tarixiy hodisalarning, insonlar jamiyati rivojlanishi shartlarining guvohi bo‘lib, mamlakat haqidagi bilimlar ombori, etnos haqidagi tarixiy-madaniy axborotning saqlovchisi va transformatoridir¹⁴.

Mazkur ishda qayd qilganimizdek, ham ingliz tilida, ham o‘zbek tilida toponimlarning hosil bo‘lishi va amal qilishiga ta‘sir ko‘rsatgan sotsiomadaniy omillarga quyidagilar kiradi:

¹⁴ Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘ll. – Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318 b.; Аноркулов С.И. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс-си автореф. – Самарканд, 2021. – Б. 60.; Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на примере географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). Дис. канд. филол. наук. – Челябинск, 2014. – С. 5-9.; Подольская Н.В. Словарь русской ономастической терминологии. / Отв. ред. А. В. Суперанская. – Изд. 2-е, перераб. и доп. – М.: Наука, 1988. – 192 с.; Суперанская А.В. Общая теория имени собственного. – 2-е изд., испр. – М.: Изд-во ЛКИ, 2007. – 368 с.

1) tarixiy istilolar, xalqlarning migratsiyasi va assimilyatsiyasi. Bu toponimik sistemada turli qatlamlarning mavjudligini taqozo etdi;

2) diniy dunyoqarashning mavjud bo'lishi va o'zgarishi, bu turli dinlar realiyalarini ifodalovchi toponimlarning mavjudligida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida toponimlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatgan sotsiomadaniy omillarga quyidagilarni ham kiritish mumkin:

1) keyinchalik konstitutsion monarxiyaga o'tgan mutlaq monarxiyaning mavjudligi, bu sulolalar nomlari, qirollar va qirolichalarning ismlari va boshq. bilan bog'liq ko'plab toponimlarning paydo bo'lishiga zamin yaratdi;

2) Buyuk Britaniya tomonidan katta hududlarning mustamlakaga olinishi, bu nafaqat Buyuk Britaniya hududida, balki AQSh, Yangi Zelandiya, Avstraliya va boshqa hududlarda ham ingliz tilidagi toponimlarning paydo bo'lishiga sabab bo'lgan;

3) AQSh hududida tub aholining mavjudligi, bu hindu aholisining ko'plab toponimlari mavjud bo'lishiga olib kelgan.

Mazkur omillarning toponimik sistema vujudga kelishiga ta'sirini batafsilroq ko'rib chiqamiz.

Ko'plab tadqiqotchilarning qayd qilishicha¹⁵, ingliz tilidagi eng qadimgi toponimlar kelt va britan davriga borib taqaladi va ularning indikatorlari quyidagilardir: *ren-*, *renn*, *porth*, *-cot*, *taen*, *axe*, *exe*, *wīc*, *tre-/tref-/trev,-rnd*, *crug/cruc*, *aber-*, *hām*, *lan-/ lhan-/llan* (Walcott, Penrith, Tregony, Lanteglos). Keltcha toponimlarning asosiy funksiyasi makonda mo'ljal olish bo'lgan. Nisbatan keng tarqalgan lotincha topoforantlarga quyidagilar kiradi: *-chester/-caster/-cester*, *parva*, *magna* (katta), *colonia/-coln*, *fos*, *foss*, *porta/-port*) (Lincoln, Lancaster, Magna Bourton, Manchester, Portsmouth, Stockport). Anglosakslar davrida ko'plab keltcha nomlar anglosakslarning til sistemasiga muvofiq assimilyatsiyalashgan. Anglosaks davrining nisbatan ko'p qo'llanuvchi topoforantlariga quyidagilar kiradi: *-ing*, *ham*, *ton*, *wic*, *borough* (*bergh*, *burh*) (qal'a), *clif* (*qoya*), *cumb*, *ende*, *ford*, *sand*, *thorn*, *wella* (Narborough, Burham, Filkins, Foxton). Skandinav tili anglosakson tiliga yaqin bo'lgani bois ushbu tillar tez assimilyatsiyalangan, ularning indikatorlariga quyidagi qo'shimchalar (suffikslar) kiradi: *-thorp*, *-bourne*, *-bu* (Heythrop, Moorbu, Southrop). Buyuk Britaniya hududining normannlar tomonidan bosib olinishi kam sonli fransuzcha elementli toponimlarning shakllanishiga olib keldi. Bular asosan fransuzcha *-le* artikli hamda *-en* predlogi ishtirok etgan toponimlardir (Thornton le Moors, Houghtton le Spring, Strainton le Vale, Clauton le Woods, Stretton en le Fiyeld)¹⁶.

¹⁵ Ekwall E. The Concise Oxford Dictionary of English Place-Names. – Oxford: Oxford University Press, 1960. – 750 p.; Smith, A. H. English Place-Names Elements. I – II, Cambridge: 1956. – P. 165.; Poulton-Smith A. Oxfordshire Place Names /A. Poulton-Smith. – Chalford, Stroud, Gloucestershire: Amberley Publishing, 2009. – 160 p.; Whittaker D. Oxfordshire Place-Names: a concise dictionary / D. Whittaker. – Eynsham: Information Press, 2006. – P. 64. Cameron K. English place names. – London: Batsford, 1977. – 258 p. Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на материале географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). Дисс. канд. филол. наук. – Челябинск, 2014. – С. 97.; Copley G. J. Names and Places with a short dictionary of common or well-known place-names [Text] / G. J. Copley. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – P. 58.; Cresswell J. The Guinness Book of British Place Names / F. McDonald, J. Cresswell. – London: Guinness Publishing, 1993. – 160 p.

¹⁶ Reaney P.H. The Origin of English Place-Names. – London: 1961. – P. 123-128.

O‘zbekiston toponimik sistemasi ham ingliz toponimiyasi singari boy va qadimdan shu hududni egallagan hamda ko‘pincha qo‘shnichilikda yashaganlarning turli tillaridan o‘zlashgan. Olimlarning qayd qilishicha, sug‘diy toponimika quyidagi nisbatan mashhur komponentlar asosida ajratiladi: *kent/kat/kant, pada, vara, gar, dor, kat, kash, kul, qo‘tan* (*Vardanzi, Varaxsha, Parkent, Gartepa, Omonqo‘tan, Marvzor, Chovdi*)¹⁷. O‘zbekiston hududi arab xalifaligi tomonidan bosib olinganidan keyin arab istilochilari islom dinini va arab tilini tezkorlik bilan yoya boshlashgan. Shunga qaramasdan, arab tili mamlakat toponimik sistemasiga ta’sir ko‘rsatmagan va faqat arablar yashagan hududlar nomlarida namoyon bo‘lgan: *Arab, Araba, Arababad, Arabon, Arabqishloq, Arablar, Arabxona, Arabcha* va hokazo. Bir qator arabcha so‘zlar turkiy so‘zlar bilan assimilyatsiyalanib, gibrid (aralash) toponimlarni hosil qilgan: *Ajinasoy, Amirtepa, Amirobod, Arabxona, Arabovul*.

Eron-tojik toponim qatlami kelib chiqishi eroncha-tojikcha bo‘lgan va nisbatan keng qo‘llanadigan so‘z yasovchi topoformantlar bilan ifodalanadi: *xona, chashma, guzar, daryo, dara, dafa/dafna, boz, ob, sang, tepa, rud, bozor, to‘da, obod, qishloq*, ular geografik nomlarning hosil bo‘lishida nihoyatda katta rol o‘ynaydi: *Eshonguzar, Bekdara, Kitob*. Shuningdek, eron-tojik toponimlari quyidagilar bilan xarakterlanadi: a) turkiy til bilan assimilyatsiyalangan topoasoslar va affikslar: *Sartepa, Guliston, Chorchinor*; b) toponimlarda tojikcha izofaning mavjudligi: *Bog‘i shamol, Obi chashma, Sari chashma*. Turkiy tilli toponimlar nisbatan ko‘p tarqalgan toponimlarga kiradi va bu ajablanarli hol emas, chunki turkiy qabilalar qadimdan mamlakatimiz hududlarida yashaganlar. S.Anorqulovning qayd qilishicha, turkiy toponimiyaning xarakterli jihati terminning sifat bilan, son bilan, antroponim bilan, etnonim bilan yoki boshqa bir termin bilan birikishidir. Bundan tashqari, ko‘plab turkiy elementlar lingvistik moslashuvchanlik xususiyatiga ega bo‘lib, bu substrat toponimlarning paydo bo‘lishiga xizmat qiladi. Turkiy tilli toponimlar asosan tabiiy landshaft nomlaridan iborat bo‘lib, geografik obyektlarning alohida jihatlarini ta’kidlaydi (*tepa, suv, daryo, ko‘l, soy, buloq, qum, ariq, tog‘*). Shu munosabat bilan geografik terminlarning tabiat obyektlarini nomlashdagi sermahsulligi va turli-tumanligi qayd qilinadi: *Mingbuloq, Naynarbuloq, To‘rtko‘l, Oqttepa, O‘ratepa, Qorasuv, Ko‘ksuv, Amudaryo, Oqdaryo, Chuqursoy, Qizilariq, Qizilqum, Oqqurg‘on* va boshq.

Shuni ham qayd qilish joizki, hozirda amal qiluvchi toponimlar bir necha qatlamlardan tashkil topadi, masalan, keltcha asos + anglosaksoncha suffiks yoki turkiy asos + eron-tojikcha komponent va hokazo.

Buyuk Britaniya hududidagi eng qadimgi dinlardan biri druidlik bo‘lib, unga ko‘ra tabiat ilohiylashtirilgan va unga sig‘inilgan. Tadqiqotchilarning qayd qilishicha, druidizmni aks ettiruvchi toponimlarni uch guruhga ajratish mumkin: “Birinci guruhga otashparastlik ibodatxonalar yoki maqbaralar nomlari kiradi. Ikkinchi guruhga muayyan xudolarga bag‘ishlangan joylar, e’tiqod markazlari

¹⁷ Qorayev S. Toponimika. O‘quv qo‘ll. – Toshkent: O‘zbekiston Faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2006. – 318 b.; Бегматов Э. Жой номлари – маънавият кўзгуси. – Тошкент: Маънавият, 1998. – Б. 64.; Бегматов Э., Улуков Н. Ўзбек ономастикаси терминларининг изоҳли луғати. – Наманган: 2006. – 103 б.; Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1988. – 288 б.; Аноркулов С.И. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс-си автореф. – Самарканд, 2021. – Б. 60.

nomlari tegishlidir. Uchinchi guruhga qurbonlik marosimi mavjudligiga ishora qiluvchi nomlar kiradi¹⁸. Masalan, *Wyfold* (ibodatxona qa'ri), *Cutslow*, *Challow* (qabr qo'rg'oni). Druidizmدا elflarga, goblinlarga, gigantlarga, gnomlarga, ajdaholarga ishonganlar: *Drakenhord* (Ajdaholar xazinasi), *Elvendon* (elflar yashaydigan tepalik), *Tusmore* (Ulkan odamlar (devlar) hovuzi), *Thomley* (gnomlar yashaydigan o'rmon). Skandinavlar dinining in'ikosi skandinav xudolariga e'tiqodni aks ettiruvchi toponimlardir: *Taston* (Torning toshi), *Wensley* (Odin dalasi), *Grim*, *Grimsbury*, *Grimspound* (Odin qudug'i)¹⁹. Kelib chiqishi xristiancha bo'lgan topoasoslarga asosan quyidagilar kiradi: *saint*, *church*, *minster*, *kirk*, *cathedral*, *abbey*, *chapel*, *priory*. Xristianlik tushunchalari bilan bog'liq topoasoslar quyidagilarga ishora qiladi: 1) muayyan joyda cherkovning mavjudligi: *Churcham*, *Churchill*, *Kirkdale*, *Kirkstead*, *Abbeydale*; 2) cherkov qurilishida ishlatilgan material: *Whitechurch*, *Woodchurch*, *Blackminster*, *Ivychurch*; 3) cherkov asoschisi: *Alverchurch*, *Alderminster*, *Oswaldkirk*, *Lirkinton*; 4) xristian avliyolari: *St. Paul's*, *St. Peter's*, *St. Marychurch*, *St. Thomas*; 5) xristiancha bino turi: *Westminster*, *Roche Abbey*, *Durham Priory*, *Canterbury Cathedral*.

O'zbekiston hududidagi asosiy din islom dini bo'lib, mazkur hududda VIII asr boshidan tarqala boshlangan. Islom dini bilan bog'liq toponimlarning ko'pi quyidagilarni aks ettiruvchi toponimlarda namoyon bo'ladi: a) mashhur islom allomalarining ismlari: *Ahmad Yassaviy*, *Mirsaid Baraka*, *Imom al-Buxoriy*, *Naqshbandiy*; b) muqaddas joylarning nomlari: *Sulaymon Ota*, *Zangiota*, *Xizrota*, *Hazrati Dovud*, *Hazrati Bashir*; v) machitlar nomlari: *Xo'ja Ahror Vali masjidi*, *Hazrati Xizr masjidi*, *Hazrati Ali masjidi*, *Shayx Tilla masjidi*, *Xo'ja Sobitxon masjidi*.

Buyuk Britaniya hududida mutlaq monarxiya 1649-yilgacha hukmronlikning asosiy shakli bo'lgan. Hozirgi vaqtda monarxiya nominal bo'lib, toponimiyada, xususan quyidagi nomlarda chuqur iz qoldirgan: a) jamlovchi nomlarda: *Kingston*, *Queensbury*, *Princetown*; b) qirollar, qirolichalar, shahzodalar va malikalar ismlarining ishlatilishida: *King Edward*, *Queen Ann*, *Maryland*, *Charlestown*, *Virginia*, *Jamestown*, *Louisiana*, *Williamsburg*.

Shimoliy Amerikaning tub aholisi ko'plab turli tilli qabilalarga bo'lingan. Ko'plab hindu qabilalari o'z tillari bilan birga yo'qolib ketgan, biroq ko'p hinducha nomlar toponimik sistemada saqlanib qolgan. Hinducha kelib chiqishga ega bo'lgan toponimlar a) shtatlarning nomlarida: *Alabama*, *Alaska*, *Arizona*, *Arkansas*, *Connecticut*, *Idaho*, *Illinois*, *Iowa*, *Kansas*, *Kentucky*, *Massachusetts*, *Michigan*, *Mississippi*, *Ohio*, *Wisconsin*; b) gidronimlarda: *Chicopee*, *Poropotank*, *Meherrin*, *Wicomico*, *Ashuelot*, *Manhan*, *Potomac*, *Mattaponi*, *Nansemond*; v) shaharlarning nomlarida: *Pima*, *Chilchinbito*, *Dennehotso*, *Huachuca City*, *Kinlichee*, *Cherokee*

¹⁸ Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на материале географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). Диссер. канд. филол. наук. – Челябинск, 2014. – С. 97.

¹⁹ Copley, G. J. Names and Places with a short dictionary of common or wellknown place-names. – London: Phoenix House Ltd., 1963. – P. 58.; Whittaker D. Oxfordshire Place-Names: a concise dictionary / D. Whittaker. – Eynsham: Information Press, 2006. – P. 35.; Давлеткулова Л.Н. Топонимы в лингвокультурологическом аспекте (на материале географических названий графства Оксфордшир и Челябинской области). Диссер. канд. филол. наук. – Челябинск, 2014. – С. 98.

Village, Chickalah, Choctaw, Havana, Modoc, Newnata va hokazolarda saqlanib qolgan.

Ingliz va o‘zbek tillari toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari deb nomlangan ikkinchi faslida, madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan axborotni ifodalovchi lingvomadaniy omillar quyidagilar bilan shartlangandir: 1) muayyan hudud toponimikasida iz qoldirgan etnoslar, ya’ni etnonimlar; 2) toponimlarning yuzaga kelishiga asos bo‘lgan mashhur insonlarning ismlari, ya’ni antroponimlar; 3) toponimning paydo bo‘lishiga asos bo‘lib xizmat qilgan afsona va rivoyatlar; 4) milliy bayramlar nomlari va ular bilan bog‘liq atributlar; 5) muayyan hudud aholisi tomonidan ikki va undan ortiq tilning ishlatilishi; 6) kundalik ijtimoiy hayotdagi voqealar, tabiat obyektlari yuzasidan kuzatuvlar.

Lingvomadaniyatshunoslik nuqtayi nazaridan toponimlarning turli guruhleri orasida etnotoponimlar alohida o‘rin egallaydi. Etnotoponimlar qadimgi qabilalar, xalqlar va boshqa etnik birliklarning nomlari to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘zida saqlaydi, shuning uchun etnotoponimlarni geografik nomlarning eng qadimgi turlaridan biri deb hisoblash mumkin.

Ingliz tilida etnotoponimlar asosan quyidagilarda saqlangan:

a) kelt va anglosakslarning qadimgi qabilalari tarqalishini aks ettiruvchi oykonimlar va mamlakat nomlarida: *England* (angllar mamlakati), *Scotland* (skottlar mamlakati), *Essex* (sharqiy saksonlar yeri), *Cumberland* (kumrilar yeri), *Cornwall* (Cornovlar yeri) va boshq.;

b) ko‘p qismi yo‘qolib ketgan tub aholining tarqalishini aks ettirgan ingliz-amerika shtatlari nomlari: *North Dakota and South Dakota, Arkansas, Idaho, Iowa, Kansas, Kentucky, Michigan, Minnesota, Missouri, Ohio, Wisconsin*;

v) gidronimlar: *Chicopee, Poropotank, Meherrin, Wicomico, Ashuelot, Manhan, Potomac, Mattaponi, Nansemond, Wakulla, Ochlockonee, Chattooga*;

g) shaharlar nomlari: *Pima, Chilchinbito, Dennehotso, Huachuca City, Kinlichee, Cherokee Village, Chickalah, Choctaw, Havana, Modoc, Newnata*.

O‘zbek toponimiyasida etnotoponimlar katta ahamiyatga ega. Ma’lumki, 92 urug‘ mavjud bo‘lgan va shu 92 “urug‘” “o‘sha paytlarda O‘rta Osiyoda yashagan ko‘plab turkiylar va ayrim turkiy bo‘lmagan etnoslarning nomlarini o‘z ichiga oladi”²⁰. Garchi, mazkur urug‘larning ko‘pi bugungi kunda o‘zini shundaylarga mansub deb hisoblamasa ham, o‘zbek toponimikasi ularning keng yoyilgani va tarqalganidan dalolat beradi. Etnotoponimlar asosan oykonimlarda uchraydi: *Naymantepa, Do‘rmon, Qo‘ng‘irot, Jaloyir, Barlos, Qipchoqsoy, Aranchi, Uymovut, Chinoz, Kerayit*.

Antropotoponimlar ingliz tili toponimik sistemasida nihoyatda katta qismni tashkil etadi. Ko‘pincha bu aholi yashay boshlagan hududlardagi yer egalarining ismlari: *Alveley, Kemberton, Oswesrty, Tilstock, Hadnall, Kinnerley, Adderley*. Bunday turdagi antropotoponimlar odatda “antroponim” + manzilgoh turi yoki geografik obyektning anglatuvchi ikkinchi element modelida bo‘lgan: *Alvel + ey, Kember + ton*.

²⁰ Султанов Т. Кочевые племена Приаралья в XV–XVII вв. // Вопросы этнической и социальной истории. – М., 1982. – С. 145.

Shuningdek, ingliz tilida quyidagilar asosida nomlangan toponimlar ko‘p ishlatiladi: a) avliyolar sharafiga: *St. Albans, St. Andrews, St. Davids, St. Ives, Saint Paul, St. Augustine, St. Louis, Santa Barbara*; b) familiyalardan kelib chiqqan: *Madison* (James Madison), *Kennedys Bush* (Thomas Kennedy), *Mackenzie Basin* (James Mckenzie), *Wellington* (Duke of Wellington); v) qirol, qirolchalar, shahzodalar va malikalar sharafiga: *Augusta* (Princess Augusta Sophia), *Charleville* (Charles II of England), *Jamestown* (James VI), *Port Albert* (Prince Albert), *Georgia* (George II), *Charlestown* (*Charles I*) va boshq.

O‘zbekiston hududida antropotoponimlar soni ingliz tilli mamlakatlardagiga nisbatan kamroq, chunki Markaziy Osiyoda, jumladan, O‘zbekistonda shaharlarning insonlar sharafiga nomlash urf bo‘lmagan. O‘zbek toponimikasida antropotoponimlar asosan mashhur shoirlar, yozuvchilar, olimlar va faylasuflar nomlari bilan ifodalanadi: *Navoiy, Hamza, G‘afur G‘ulom, Beruniy, Gagarin, Buvayda*.

Ma’lumki, toponimlar madaniy markerlangan birliklar bo‘lib, ular o‘zlarining paydo bo‘lishi bilan bog‘liq muayyan afsona va rivoyatlarni o‘zida tashiydi. Shunday toponimlardan biri Britan orollaridagi eng katta bo‘lgan *Loch Ness* ko‘lining nomidir. Ushbu ko‘lda yashovchi mavjudot haqidagi afsonalar keltlar davriga oid bo‘lib, mahalliy piktlar aholisi noma’lum maxluqni tosh ustiga o‘yib tasvirlagan. Nessi hanuzgacha eng keng tarqalgan va o‘lmas afsonalardan biriligicha qolmoqda, qolaversa, u bu ko‘lni diqqatga sazovor turistik joyga aylantirgan. O‘zbekistonda ham afsonalar bilan bog‘liq bo‘lgan toponimlar mavjud. Masalan, S.Anorqulovning ishida *Xonim-Qo‘rg‘on* toponimi to‘g‘risidagi afsona keltirilgan. Bu afsona qal’a sardorining qizi – go‘zal Zumrad haqida so‘zlaydi. Zumrad erining qal’ani suv bilan ta’minlaydigan suv manbaini aniqlash uchun yuborilgan josus ekanini aniqlaganida uni o‘ldiradi. Zumrad o‘z xalqi uchun muhabbatini qurbon qilgan va umrining oxirigacha uni boshqargan, aholi esa uning sharafiga o‘z qo‘rg‘onini *Xonim-Qo‘rg‘on* deb atagan²¹.

Ingliz tilidagi xristianlik va turli mifologiya bilan bog‘liq toponimlar alohida qiziqish uyg‘otadi: *Babylon* Qadimgi olamning eng yirik shaharlaridan biri bo‘lgan Vavilon (Bobil) sharafiga, *Bephleem* – Iso payg‘ambar (Iisus Xristos) tug‘ilgan shahar sharafiga qo‘yilgan, *Atlanta* shahri Atlant haqidagi qadimgi mif bilan, *Memphis* (Memfis) shahri esa Qadimgi Misrning poytaxti nomi bilan bog‘liq.

Toponimlar o‘z semantikasida turli milliy bayramlarni aks ettiradi. Masalan, ingliz tilli madaniyatning eng muhim bayramlaridan biri – Christmas (Milod kuni). Bu bayram sovg‘alar almashinish, Santa-Klaus, kiyiklar va boshqa turli marosimlar, urf-odatlar bilan kechadi. Mazkur bayram va uning atributlari (belgilari) ko‘plab shaharlarning nomlarida aks etgan: *Christmas* (Florida), *Santa* (Idaho), *Garland* (Texas), *Santa Klaus* (Georgia), *Noel Street, Rudolph Street* (Georgia). Hozirgi vaqtda Christmas xristianlik elementlarini yo‘qotib, butun dunyoda nishonlanadigan, sovg‘alarni almashinish borasida obdon fikr qilingan, dunyoviy-oilaviy bayramga aylangan.

²¹ Anorqulov С.И. Немис ва ўзбек тилларида топонимларнинг лингвокогнитив тадқиқи. Филол. фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс-си. – Самарканд, 2021. – Б. 99.

Asosiy va eng ahamiyatli o'zbek milliy bayramlaridan biri miloddan avvalgi VI asrdan beri mavjud bo'lgan Navro'z bayramidir. Navro'z – bahor boshlanishi ramzi, u ezgulikning yovuzlik ustidan, shodlikning g'am-qayg'u ustidan g'alabasini ramziylashtiruvchi katta ruhiy boshlanmani o'zida namoyon etadi. Mazkur bayram urf-odatlar va marosimlari, sport o'yinlari, bayramona dasturxonning bezatilishi, tozalik, yorug'lik, fayz, xayr-barakani ramzlashtiruvchi taomlar yangi yildagi baxt va hosildorlikdan umidvorlik hissini beradi. Mazkur bayramning ahamiyati O'zbekistonning Qashqadaryo, Jizzax, Sirdaryo va hokazo hududlarida *Navro'z* toponimlarining ko'pligida aks etadi.

Ingliz-amerika toponimlarining milliy-madaniy o'ziga xosliklaridan biri unda ispan yoki ispan-ingliz tilidagi geografik obyekt nomlarining ko'pligidir. Bu AQSh hududiga oid quyidagi holatlar bilan bog'liq: 1) AQSh hududi avval ispan istilochilari tomonidan egallangan va ular geografik obyektlarga nom berganlar; 2) ispan tili tub aholi tili bilan aralashib, keyinchalik bir qismi (Kaliforniya, Nyu Meksiko, Texas shtatlari) aholisi bilan birga AQShga qo'shilgan Meksikaning asosiy tili bo'lgan; 3) ispan tili Lotin Amerikasidagi yetakchi til bo'lib, u yerdan ko'plab immigrantlar AQSh hududiga kelgan. Bundan tashqari, frank tilli toponimlar ham keng amal qiladi, bu ham AQSh hududida yashovchi turli xalqlarning o'zaro ta'siri natijasidir.

Nisbatan ko'p ishlatiladigan ispancha toponimlar quyidagilardir: *poza*, *pozo* (manba, buloq; quduq), *rio* (daryo), *arroyo* (oqim, kanal; eski quruq oqim o'zani; ariq bilan yuvilgan jar), *cienaga* (botqoqlik), *laguna* (ko'l), *cabeza* (bosh), *canyon* (kanon, kanyon), *cerrito* (tepalik), *loma* (kichik tepalik; tepalik), *mesa* (tekis, stolga o'xshash tepa va tik yon bag'irlari bo'lgan mustaqil tepalik yoki do'nglik), *rincon* (dara, tor vodi; qoya joy). Masalan, *Pozo Creek*, *Rio Vista*, *Dry Arroyo*, *Cooper Cienaga*, *Laguna Peak*, *Cajon Creek*, *Canyon Park*, *Cerritos*, *Loma*, *Mesa Grande*. Ushbu misollarning ko'pida ispancha va inglizcha topoasos va toponimlarning, ispancha va inglizcha sodda so'zlarning aralashuvi kuzatiladi: *Big Arroyo*, *Surprise Arroyo*, *Cienaga Creek*, *Rincon Mountain*. *Pozo Camp*, *Rio Grande City*, *Cerrito Hill*. Ba'zida tautologiya holatlari qayd etiladi: *Arroyo Grande Creek* (oqim – katta – oqim); *Arroyo Seco Creek* (oqim – quruq – oqim). Kelib chiqishi fransuzcha bo'lgan toponimlarga quyidagilar kiradi: lac (ko'l), ville (shahar), mont (tog'), bois (o'rmon). Masalan: *Christmasville*, *Belmont*, *Vermont*, *Waterville*, *Boise*.

O'zbek toponimiyasida ham ijtimoiy hayot voqea-hodisalari qayd qilinadi, ma'naviy hayot o'ziga xosliklari bilan bir qatorda toponimiyada o'z aksini topadi. O'zbek toponimlarida aholi e'tiboriga molik bo'lgan va nomlash uchun asos sifatida xizmat qilgan, kamdan-kam kuzatiladigan voqea-hodisalarga ishora qiluvchi fe'llar va sifatdoshlarni qo'llash xosdir. Masalan: *Qaynarbuloq*, *Borsa-Kelmas*. Borsa-Kelmas oroli nomida u yerga bormaslik to'g'risidagi qandaydir ogohlantirish qayd qilinadi va u, ehtimol, sehr-jodu, mifologik qarashlar bilan bog'liqdir. Bundan tashqari, o'zbek toponimiyasida aholining kundalik va ijtimoiy hayotiga doir voqea-hodisalar ham o'z aksini topgan, masalan, *Echki qirildi* (echkilar o'lgan joy), *Tangatopdi* (tanga topilgan joy) qishloqlari.

Ikkilamchi nominatsiya: toponimik laqablar madaniy hodisa sifatida deb nomlangan uchinchi faslida, ingliz tili toponimikasining milliy-madaniy xususiyatlaridan biri metaforik, metonimik, shuningdek, antonimlar orqali ifodalanadigan ko‘plab ikkilamchi nominatsiyalardan (geografik obyektlarning norasmiy nomlari, ularning taxalluslari) foydalanishidir. Metaforik ikkilamchi nominatsiyalar a) ichki va tashqi o‘xshashlikka asoslangan: Panhandle State "qozon dastasi" (Garbiy Virjiniya), Lady of the Lake "Ledi ko‘li" (Michigan); b) funksiyasi bo‘yicha: Diamond State "olmos" (Delaver), chunki Delaver shtati, o‘zining kichik o‘lchamiga qaramay, mamlakat iqtisodiyotida katta rol o‘ynaydi; v) tarixiy dalillar va voqealarga asoslangan ijtimoiy-siyosiy komponent va xususiyatlar: Mother of Presidents "prezidentlarning onasi", Mother of Statesmen "siyosatchilarning onasi", Mother of States "shtatlarning onasi" (Virjiniya); Mother of Southwestern Statesmen "janubiy-sharqiy siyosiy arboblarning onasi (vatani)" (Tennesi). Ko‘pgina norasmiy nomlar ma’lum bir toponimga baho beradi: Paradise of the Pacific (Gavayi), Fisherman’s Paradise Sportsman’s Paradise (Luiziana). Bu nominatsiyalarning ijobiy baholanishi "paradise" (paradise – 1) leksemasining ijobiy yo‘nalishi nihoyatda yoqimli, go‘zal yoki zavqli joy yoki holat (a place or situation that is extremely pleasant, beautiful, or enjoyable); 2) heaven, thought of as the place where God lives and where there is no illness, death, or evil) bilan bog‘liq. Toponimlarning muhim qismini ma’lum sinonimiyani tashkil etuvchi toponimik taxalluslar tashkil etadi: *Beantown* – loviya shahri (Boston taxallusi), bu taxallus loviya Boston aholisining an’anaviy taomi ekanligi bilan bog‘liq; *Big Windy* yoki *Windy City* – shamollar shahri (Chikago).

Ingliz va o‘zbek tillarida toponimik laqablarning lingvomadaniy guruhlanishi o‘zaro farqlanadi. Masalan, ingliz tilida bunday guruhlar soni 9 ta tashkil etsa, o‘zbek tilida bunday guruhlanishlar soni 5 tani tashkil etadi. O‘zbek tilida toponimik laqablarning lingvomadaniy guruhlanishi quyidagi 3.3-rasmda aks etadi.



3.3-rasm. O‘zbek tilida ishlatiluvchi toponimik laqablarning lingvomadaniy guruhlari

Ko‘p sonli ikkilamchi nominatsiyalar gazeta va jurnallar matnlarida, siyosiy arboblarning chiqishlarida va geografiya darsliklarida norasmiy toponim sifatida qo‘llanadi.

XULOSA

Ingliz va o‘zbek tillarida toponimlarning lingvokulturologik tadqiqi natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Toponimlar muayyan lingvomadaniyatning toponimik sistemasini hosil qiladi. Toponimlarning asosiy funksiyalariga identifikatsiyalovchi (nomlovchi), ko‘rsatuvchi (deyktik), manzilli, xarakterlovchi, ideologik, deskriptiv, pragmatik kabi funksiyalar kiradi. Toponimlarning turli tasniflari mavjud bo‘lib, ularning asosida turli mezonlar yotadi: a) nominatsiya (nomlash) obyektlari bo‘yicha; b) obyekt kattaligi (hajmi) bo‘yicha; v) etimologik belgisiga ko‘ra; d) motivatsiyalangan darajasiga ko‘ra. Toponimlarning yagona tasnifi mavjud emas, chunki har bir tasnif turli maqsadlarga ega bo‘lgan muayyan mezonlarga e‘tiborini qaratadi.

2. Xorijlik, o‘zbekistonlik va rus olimlarining toponimika bo‘yicha lingvistik tadqiqotlari o‘rganilayotgan masalaga nisbatan bir qancha yondashuvlarni ajratish imkonini beradi: 1) toponimika fani va toponimlar bo‘yicha umumnazariy tadqiqotlar; 2) toponimlarning etimologiyasi bo‘yicha qilingan tadqiqotlar; 3) toponimlarning struktur-semantik xususiyatlari bo‘yicha qilingan tadqiqotlar; 4) toponimlarning turli tillar asosida qilingan qiyosiy tadqiqi; 5) toponimikaning leksikografik aspekti; 6) toponimlarning kognitiv va lingvokulturologik tadqiqi.

3. Inglizcha va o‘zbekcha toponimlar tuzilishiga (strukturasiga) ko‘ra sodda (tub), yasama, qo‘shma va murakkab toponimlarga bo‘linib, ular har ikkala tilda muayyan tuzilish modellari bo‘yicha maxsus topoasoslar, topoformantlar va yarimaffikslar yordamida hosil bo‘ladi. Allomorf belgilarga quyidagilar kiradi: a) o‘zbek tilida sodda tub va sodda yasama toponimlarning, ingliz tilida esa faqat sodda tub toponimlarning mavjudligi; b) ingliz tilida maxsus toponimik suffikslarning va so‘z yasovchi elementlarning mavjudligi; v) ingliz tilida suffiks ko‘rinishidagi predlogli birikmalarning mavjudligi; g) ingliz tilida “fe’l + ravish”, “predlog + ot” va o‘zbek tilida “ot + fe’l” ko‘rinishidagi kompozit modellarining mavjudligi; d) o‘zbek tili birikmali toponimlarida 3-shaxs suffiksi (qo‘shimchasi)ning ishlatilishi.

4. Ingliz va o‘zbek tillari toponimlarining motivatsion asosni hisobga olgan holdagi semantik tahlili 5 ta guruhga ajratgan holda har ikkala tilda nomlash tamoyillari obyektning geografik yoki tabiiy belgilari (landshaft, relyef, fauna, flora) bo‘yicha nomlarni, inson bilan aloqadorlik bo‘yicha nomlarni (shaxs nomlari, qabila va urug‘lar nomlari, xo‘jalik faoliyati) o‘z ichiga olsa ham, semantik guruhlarda u yoki bu motivatsion asoslarning samaradorligi va miqdoriy mutanosibligida namoyon bo‘luvchi milliy-madaniy o‘ziga xoslik kuzatiladi.

5. Obrazli toponimlar tahlili metaforik modellarning asosini tashkil etuvchi quyidagi universal belgilarni ajratish imkonini berdi. Faqat o‘zbek tiliga xos bo‘lgan milliy-madaniy metaforik belgilarga quyidagilar kiradi: 1) geografik obyektlarning inson sifatleri va insonning holati bilan bog‘liq predmetlar bilan nisbatlanganligi;

inson va qarindoshlik terminlari bilan nisbatlanganlik; 2) ta'm sifatlari bilan nisbatlanganlik; 3) geografik obyektlarning shakl bo'yicha nisbatlanganligi; 4) geografik obyektlarning inson maishiy hayoti predmetlari bilan nisbatlanganligi; 5) o'simlik dunyosining yo'qligi (odatda relyef obyektlarida) yoki yakka obyektlar.

6. Ham ingliz tilidagi, ham o'zbek tilidagi toponimlarning paydo bo'lishi va amal qilishiga ta'sir ko'rsatgan sotsiomadaniy, lingvomadaniy omillarga quyidagilar kiradi: 1) tarixiy istilolar, xalqlarning migratsiyasi va assimilyatsiyasi; 2) diniy dunyoqarashlarning mavjudligi va o'zgarishi. Har ikkala toponimik sistemalarning xarakterli jihati turli etnik qatlamlanishlarning birgalikda mavjud bo'lishi va o'zaro kirib borishi bo'lib, ularning har biri ham ingliz, ham o'zbek toponimikasida sezilarli iz qoldirgan. Ingliz toponimikasida diniy (keltcha, skandinavcha va xristiancha) sistemalarning almashishi ham o'z aksini topgan.

7. O'zbek tilidagidan farqli o'laroq faqat ingliz toponimlarning paydo bo'lishi va amal qilishiga ta'sir ko'rsatgan sotsiomadaniy, lingvomadaniy omillarga quyidagilar ham kiradi: 1) keyinchalik konstitutsion monarxiyaga o'zgargan mutlaq monarxiyaning mavjudligi; 2) Buyuk Britaniya tomonidan katta hududlarning mustamlaka qilinishi; 3) AQSh hududida tub xalqlarning mavjudligi. Mazkur omillarning barchasi madaniy axborotning saqlanishi hamda uzatilishiga xizmat qilib, ingliz-amerika lingvomadaniyatining rang-barang toponimik sistemasining hosil bo'lishida katta rol o'ynagan.

8. Ingliz va o'zbek tillari toponimlarining shakllanishiga ta'sir ko'rsatgan lingvomadaniy omillar quyidagi universal hodisalar bilan shartlanganligiga qarab, O'zbekcha toponimlarga aholining e'tiboriga molik bo'lgan va nomlash uchun asos bo'lib xizmat qilgan kamdan-kam sodir bo'ladigan voqealarga ishora qiluvchi fe'llar va sifatdoshlarning qo'llanishi xosdir.

9. Lingvomadaniy omillar ham ingliz, ham o'zbek tillari toponimik sistemasi uchun yagona bo'lishiga qaramasdan, mazkur guruhlarining mazmunida farqli belgilar ham kuzatiladi. Masalan, "nomlari etnotoponim uchun asos bo'lgan qabila va urug'larning mavjudligi" guruhining mazmunida quyidagi farqlar kuzatiladi: a) Buyuk Britaniyada kelt qabilalarining nomlari; b) ingliz tilida AQSh tub xalqlari nomlari; v) O'zbekiston hududida turkiy urug'larning nomlari; g) o'zbek tilidagi toponimlarda millatlarning nomlari. Ingliz tilidagi "toponim paydo bo'lishi uchun asos bo'lgan mashhur shaxslarning ismlari" guruhining mazmunida a) qirollar, qirolichalari, shahzodalar va malikalar ismlarining keng qo'llanishi; b) mashhur olimlar, siyosatshunoslar familiyalarining ishlatilishi kuzatiladi.

10. ingliz-amerika madaniyatiga oid toponimlarning milliy-madaniy o'ziga xosligiga metaforik, metonimik taxalluslar vositasida ifodalanuvchi ikkilamchi nomlarning, shuningdek antonomaziya asosidagi toponim-taxalluslarning keng qo'llanishi ham kiradi. Toponim-taxalluslarning eng keng tarqalgan motivatsiyalovchi belgilariga ijtimoiy-siyosiy komponent hamda tarixiy dalillar, voqealarga asoslangan komponentlar kiradi. Ikkilamchi nomlar ekspressiv-baholovchi birliklardir, zero, ular muayyan lingvomadaniyat vakillarining u yoki bu geografik obyektga bergan bahosini yorqin ifodalaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ХАЙИТОВА ФЕРУЗА АБДИХАЛИКОВНА

**ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ
ТОПОНИМОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD по филологическим наукам)**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером № B2023.3. PhD/Fil1669.

Диссертация выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyo.net).

Научный руководитель: Рузикулов Фазлиддин Шукурович
кандидат филологических наук, доцент

Официальные оппоненты: Сулайманова Нилуфар Жабборовна
доктор филологических наук, доцент

Рахимов Ганишер Худойкулович
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: Каршинский государственный университет

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil.83.01 по присуждению учёных степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, г. Самарканд, улица Гагарина, д.43. Тел: (99866) 233-78-43; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером ___). Адрес: 140104, Узбекистан, г.Самарканд, улица Гагарина, д.43. Тел: (99866) 233-78-43. факс: (99866) 210-00-18.

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 г.
(Протокол рассылки за № ___ от «___» _____ 2025 г).

Н.З.Насруллаева

Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У.Кулдошов

Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии по филологическим наукам (PhD), доцент

Д.А.Киселёв

Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В настоящее время в современном мировом языкознании широко используется междисциплинарный подход к изучению языковых единиц. Это обусловлено тем, что комплексное изучение языковых единиц не может быть осуществлено без обращения к вопросам о соотношении языка и культуры, языка и социума. Такой подход к исследованию языковых единиц, в частности топонимов, требует привлечения не только лингвистических знаний, но и данных в области культурологии, истории, социологии, религиоведения, мифологии и др. В связи с этим исследование лингвокультурологических аспектов топонимов является актуальной и востребованной задачей, так как топонимы непосредственно отражают лингвокультуру народов, живших и живущих на той или иной территории.

Лингвокультурологический аспект топонимов находится в центре внимания многих ученых. Это обусловлено тем, что каждый народ оперирует своеобразным набором языковых единиц для обозначения и выделения географического объекта, который отражает особенности его национальной культуры, восприятия и мировоззрения. Несмотря на свою значимость, лингвокультурологический аспект топонимов на материале двух неродственных языков мало изучен, поэтому актуальность данного исследования также обусловлена тем, что в нём топонимы изучаются в сопоставительном плане в ракурсе лингвокультурологии.

В лингвистике Узбекистана проблема лингвокультурологических особенностей языковых единиц находится в центре внимания ряда исследователей. Особую значимость имеют сопоставительные исследования, что обусловлено важностью выявления универсальных и национально-культурных признаков топонимов, что в свою очередь способствует улучшению социокультурных компетенций лиц, изучающих иностранные языки. Как утверждает Президент Республики Узбекистан, «просвещенная нация, уважающая свой язык, уважает и родной язык других²²».

Данная диссертационная работа, вносит определенный вклад в реализацию задач, определенных в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года», в Указе Президента Республики Узбекистан №УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по коренному повышению престижа и положения узбекского языка как государственного», № УП-6084 от 20 октября 2020 года «О мерах по дальнейшему развитию узбекского языка и совершенствованию языковой политики в стране», в Указе Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», в Постановлении Президента Республики Узбекистан ПП № 5117 от 19 мая 2021 года «О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике

²² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktyabr kuni O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining 30 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi. – Toshkent. 2019. Xalq so‘zi gazetasi. № 218. – 2 b.

Узбекистан», а также, в Постановлениях Кабинета Министров Республики Узбекистан № 610 от 11 августа 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию качества преподавания иностранных языков в образовательных учреждениях», № 312 от 19 мая 2021 года «О мерах по эффективной организации популяризации изучения иностранных языков», и в других нормативных-правовых документах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Настоящее исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий в республике – I. «Пути формирования и реализации системы инновационных идей в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информированного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Проблема антропоцентрического и лингвокультурного подхода к исследованию языковых единиц разрабатывается в научных трудах ряда учёных, таких как Н.Ф.Алефиренко, В.В.Воробьев, В.А.Маслова, С.Г.Тер-Минасова, Н.М.Махмудов, Ш.С.Сафаров, Д.С.Худойбергана²³ и др.

Исследования по проблемам топонимики проводились в работах таких ученых, как Е.Еуквал, А.Смит, В.Д.Беленькая, О.А.Леонович, Т.В.Хвесько, В.А.Жучкевич, В.А.Никонов, Н.В.Подольская, А.В.Суперанская, С.Кораев, Э.Бегматов, Т.Нафасов, З.Дусимов, Т.Ж.Эрназаров, Х.Буриева²⁴. Данные работы в основном посвящены общим методологическим проблемам топонимики, разработке принципов классификации топонимов, этимологическому анализу топонимов, а также выполнены в основном в русле структурной лингвистики (структурно-семантические и грамматические особенности топонимов) на материале одного языка. Отдельного внимания

²³ Алефиренко Н.Ф. Современные проблемы о языке. – М.: Флинта: Наука, 2005. – 416 с.; Воробьев В.В. Лингвокультурология: Монография / – М.: РУДН, 2008. – 336 с.; Маслова В. А. Лингвокультурология: Учеб. Пособие для студ. высш. учеб. заведений /– М.: Издательский центр Академия, 2001. – 208 с.; Тер-Минасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация: (Учебное пособие). – М.: Слово / Slovo, 2000. – 624 с.; Махмудов Н.М. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент: 2012. – №5. – Б. 3-16; Маслова В. А. Когнитивная лингвистика. – Минск: Тетра Систем, 2004. – 256 с.; Сафаров Ш. С. Когнитив тилшунослик. – Самарканд: Сангзор нашриёти, 2006. – 92 б.; Худойбергана Д.С. Антропоцентрическое толкование художественных текстов в узбекском языке: Автореф. дис... д-ра филол. наук. – Тошкент: 2015. – С. 80.

